



ARAB TILIDA TUB SIFATLI ANIQLOVCHINING SEMANTIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI (FOZIL AS-SAMARROIYNING “MA’ONIY AN-NAHV” ASARI ASOSIDA)

Davronbek Abdullayev,

Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi jomid na’t kategoriyasining semantik va uslubiy xususiyatlari taniqli tilshunos olim Fozil Solih as-Samarroiyning “Ma’oni an-nahv” asari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda jomid na’tning grammatik shakldan tashqari nutqdagi kommunikativ va balog‘iy imkoniyatlari ochib beriladi. Xususan, “أَي”, “كُل”, “حَق” kabi birliklar orqali mubolag‘a, ta’kid va baholash ma’nolarining ifodalanishi tahlil qilinadi. Natijada jomid na’t arab nutqida semantik aniqlashtirish va uslubiy ta’sirni kuchaytiruvchi muhim vosita ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Arab tilshunosligi, na’t, jomid sifat, semantika, stilistika, Fozil as-Samarroi.

Abstract. This article examines the semantic and stylistic features of the jamid (non-derived) attribute in Arabic grammar based on the work “Ma’ani al-Nahw” by the prominent linguist Fadil Salih al-Samarrai. The study analyzes the transformation of the attribute from a purely grammatical structure into a semantic and rhetorical device. Particular attention is given to constructions formed with particles such as “ay”, “kull”, and “haqq”, as well as expressions of exaggeration and evaluation. The research demonstrates that jamid attributes play a significant role in semantic specification and stylistic emphasis in Arabic discourse.

Keywords: Arabic linguistics, attribute, jamid adjective, semantics, stylistics, Fadil al-Samarrai.

Arab tilida na’t kategoriyasi sintaktik tizimning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. An’anaviy nahv nazariyasiga ko‘ra, na’tning asosiy shakli mushtaq (yasama) birlik bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Biroq ayrim holatlarda jomid birliklar ham sifatlash vazifasida keladi. Zamonaviy lingvistik yondashuvlar bunday konstruktsiyalarni faqat grammatik vosita sifatida emas, balki semantik va uslubiy ma’no hosil qiluvchi birlik sifatida talqin qiladi.

Fozil as-Samarroi o‘zining “Ma’oni an-nahv” asarida jomid na’tning turli ko‘rinishlarini keng tahlil qilib, ularning nutqdagi funksional imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Muallifga ko‘ra, jomid orqali kelgan sifatlash ko‘pincha aniqlashdan ko‘ra



baholash, mubolag‘a va ta‘kid ma‘nolarini ifodalashga xizmat qiladi.

Jomid na‘t (tub sifat)

Na‘tning asl shakli mushtaq (yasama) bo‘lishidir. Masalan:

(مررت برجل ضاحك) — kulayotgan bir odam yonidan o‘tdim.

(مررت برجل طويل) — bo‘yi uzun bir odam yonidan o‘tdim.

Biroq ba‘zan na‘t jomid (yasalmagan) so‘z bilan ham keladi.

1. Nisbat va mavsul bilan na‘t

Masalan nisbat so‘zi bilan:

(مررت برجل بصري) — basralik bir odam yonidan o‘tdim.

Yoki nisbiy olmosh bilan:

(مررت بالشخص الذي فاز) — g‘olib bo‘lgan shaxs yonidan o‘tdim.

2. Miqdor va sonlar bilan na‘t

Masalan:

(أقبل رجال مائة) — yuz kishi keldi.

(أقبل رجال سبعة) — yetti kishi keldi.

(اشترت حريراً ذراعين) — ikki gaz ipak sotib oldim.

3. “مَثَل” va o‘xshatish ma‘nosini bildiruvchi so‘zlar bilan

Masalan:

(مررت برجل مثلك وضربك وشبهك ونحوك) — senga o‘xshagan bir odam yonidan o‘tdim.

Shuningdek “ذو” bilan ham keladi:

(رأيت رجلاً ذا علم) — ilm egasi bo‘lgan odamni ko‘rdim.

4. “أَي” bilan jomid na‘t

Masalan:

(مررت برجل أي رجل وأيما رجل)

Ma‘nosi: qanday ham mukammal bir odam yonidan o‘tdim!

Bu “أَي الكمالية” deb ataladi. Unda taajjub va mubolag‘ali madh ma‘nosi mavjud bo‘lib, odatda nakirani sifatlashda keladi.

Sibavayh kitobida aytiladi:

(مررت برجل أيما رجل) dagi “أيما” so‘zi uning kamolligini bildirib, boshqalardan ustunligini ko‘rsatadi. Go‘yo: “mukammal bir odam yonidan o‘tdim” degandek.

Ba‘zi nahvchilarga ko‘ra, bu aslida so‘roq ma‘nosidagi “أَي” dan ko‘chirilgan bo‘lib, keyinchalik mukammallikni ifodalash uchun ishlatilgan.

Radiy fikri (Sharh al-Kafiya)

Radiy aytadi: mening nazdimda kuchliroq fikr shuki, (أَي رجل) birikmasidagi “أَي” o‘zidan oldingi so‘z (matbu‘)da mustaqil ma‘no ifodalash uchun qo‘yilgan emas, balki so‘roq ma‘nosidagi “أَي” dan ko‘chirilgandir. Chunki so‘roq “أَي” narsa noma‘lum



bo'lganda uni aniqlash uchun qo'yiladi.

Keyinchalik bu so'z mukammallikni ifodalash va hayrat bildirish ma'nosida isti'ora sifatida ishlatila boshlagan. Bu yerda so'roq va sifatlashni birlashtirib turuvchi jihat shuki: nihoyatda mukammal va hayratlanarli darajadagi narsa go'yo noma'lumdek tuyuladi va u haqida qayta so'rashga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Masalan:

(مررت برجل أي رجل)

Buning asl shakli:

(أي رجل هو؟) — “u qanday odam o'zi?” tarzidagi so'roq bo'lib, undan ulug'lash va buyuk ko'rsatish maqsadi ko'zlangan.

So'zlovchi bu orqali uning sifatlarini to'liq tasvirlashdan ojiz ekanini bildiradi. Go'yo bu shaxsning mohiyati noma'lumdek darajada buyuk.

Shu sababli bu uslub so'roq bobidan sifatlash bobiga o'tgan.

Qur'onda ham shunga o'xshash uslub mavjud:

(القارعة ما القارعة)

(الحاقة ما الحاقة)

Bu yerda ham maqsad — sifatni to'liq ifodalab bo'lmasligini ko'rsatishdir.

Natijada bu so'roq shakli ulug'lash ma'nosida mustahkamlanib, na't sifatida qo'llanadigan bo'ldi.

5. “كل”, “جد”, “حق” bilan na't

Masalan:

(مررت بالرجل كل الرجل وحق الرجل وجد الرجل)

Maqsad — kamollikda mubolag'a va eng yuqori darajani bildirish.

Radiy aytadi:

“كل الرجل” — barcha erkaklarda mavjud yaxshilik sifatleri unda jamlangan.

“جد الرجل” — go'yo boshqalar arzimasi.

“حق الرجل” — go'yo boshqalar bekor.

Bu uslub mubolag'ali ta'kid uslubiga kiradi (جرد قطيفة).

Yomonlashda ham ishlatiladi:

(أنت اللئيم جد اللئيم وحق اللئيم) — sen chinakam pastkashsan.

6. “ما شئت” bilan na't

Masalan:

(رأيت رجلاً ما شئت من رجل)

Ma'nosi: ko'ngling istagan darajadagi bir odamni ko'rdim.

Ya'ni: istagingni to'liq qondiradigan odam.

7. “حسبك”, “همك”, “ناهيك”, “هدك”, “شركك” bilan na't



Masalan:

مررت برجل حسبك من رجل وشرعك من رجل وهمك من رجل وناهيك من رجل وهدك من رجل وكفيك من رجل

Bu iboralar erkak, ayol, birlik, juftlik va ko‘plik uchun bir xil shaklda ishlatiladi:

(مررت بامرأة هذك من امرأة، وامرأتين هذك من امرأتين، ونساء هذك من نساء)

Ba‘zilari moslashadi, masalan “ناهيك”, chunki u ism fa’ildir; ba‘zilari fe’l sifatida ham ishlatiladi: (هدك، هدتك، هداك).

Ularning ma’nolari “kifoya qilish” ma’nosiga yaqin.

“حسبك” — kifoya qiluvchi.

Qur’onda: {فإن حسبك الله} — ya’ni Alloh senga kifoya qiladi.

“همك” — maqsading yoki seni hayratga soladigan darajada.

Ibn Ya‘ish sharhida:

“همك من رجل” — “حسبك” ma’nosida, ya’ni sen istaydigan darajadagi odam.

Radiy sharhida: u seni hayratga soladigan darajada fazilatli.

“ناهيك” — undagi yetarlilik sababli seni boshqasini izlashdan qaytaradi.

“هدك” — uning fazilatlarini sanash seni holdan toydiradi.

Ibn Ya‘ishda: kuch va yetarlilik ma’nosiga nisbat qilinadi.

Lisān al-Arabda: “kifoya qiladi” yoki fazilatlarini sanash seni og‘irlashtiradi.

“شرعك” — talab qilganing yoki istaging.

8. Sifatlanayotgan so‘zni takrorlash

Jomid bilan na’tning yana bir turi — sifatlanayotgan so‘zni takrorlab, “صدق” yoki “سوء” ga qo‘shish.

Masalan:

(مررت برجل رجل صدق)

Radiy sharhida: bu yerda “صدق” rostlik emas, balki mutlaq yaxshilik ma’nosidadir.

Ikkinchi so‘z birinchining badali sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

Sibavayh aytadi:

(مررت برجل رجل صدق) — solih odam.

(مررت برجل رجل سوء) — buzuq odam.

Chunki “صدق” — yaxshilik, “سوء” — buzilish ma’nosidadir.

Xulosa. Tahlil natijalariga ko‘ra, jomid na’t arab tilida nafaqat grammatik konstruktsiya, balki semantik aniqlashtirish va uslubiy ta’sirni kuchaytiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Fozil as-Samarroiy asarlarida ushbu birliklarning kommunikativ imkoniyatlari chuqur yoritilgan bo‘lib, ular zamonaviy lingvistik tahlil uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Jomid na’tning semantik va stilistik xususiyatlarini o‘rganish arab tilshunosligida grammatik birliklarning nutqdagi rolini chuqurroq



tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. السَّامِرَائِي، فاضل صالح. معاني النحو. عمّان: دار الفكر، 1420هـ / 2000م.
2. ابن يعيش، موفق الدين يعيش بن علي. شرح المفصل. القاهرة: إدارة الطباعة المنيرية، د.ت. (8 أجزاء)
3. ابن عقيل، بهاء الدين عبد الله. شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك. تحقيق: محمد محيي الدين عبد الحميد. القاهرة: دار إحياء الكتب العربية، 1964م. (4 أجزاء)
4. الأزهرى، خالد بن عبد الله. التصريح على التوضيح. القاهرة: دار إحياء الكتب العربية، 1955م. (جزءان)
5. السيوطي، جلال الدين عبد الرحمن. همع الهوامع في شرح جمع الجوامع. مصر: مطبعة السعادة، 1959م. (جزءان)